IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Ҳужжат коди: SY20838095

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL XO‘JALIGI VAZIRINING
BUYRUG‘I

2026 yil.“25”mart **45-son**

QR 01.02-26 “Qurilishda ekologik faoliyat talablari” qurilish reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining Shaharsozlik kodeksi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 18-noyabrdagi PQ-343-son qaroriga muvofiq

B U Y U R A M A N:

1. QR 01.02-26 “Qurilishda ekologik faoliyat talablari” qurilish reglamenti ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Mazkur buyruq O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Texnik jihatdan tartibga solish agentligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasi bilan kelishilgan.

3. Ushbu buyruq rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Vazir **Sh.Xidoyatov**

MUL2329

O‘zbekiston Respublikasi
qurilish va uy-joy kommunal
xo‘jaligi vazirining
2026-yil 25-martdagi
45-son buyrug‘iga
ILOVA

QR 01.02-26 “Qurilishda ekologik faoliyat talablari” qurilish reglamenti

Mazkur qurilish reglamenti qurilish (rekonstruksiya, kapital ta’mirlash va demontaj) ishlarini amalga oshirishda ekologik ta’sirni kamaytirish, aholi salomatligi va atrof-muhit xavfsizligini ta’minlash hamda qurilish maydonlarida ekologik talablarning ochiqligi va hisobdorligini kuchaytirishga qaratilgan tavsiyalarni belgilaydi.

Mazkur qurilish reglamenti talablari sanoat va fuqarolik obyektlari, yirik infratuzilma obyektlari, shuningdek aholi yashash hududlari yaqinida joylashgan qurilish maydonlariga nisbatan qo‘llaniladi.

Mazkur qurilish reglamentdagi talablar obyektga taalluqli loyiha hujjatlari, atrof-muhitga ta’sirni baholash materiallari (mavjud bo‘lgan hollarda) hamda amaldagi sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari va ekologik talablar bilan uyg‘un holda tatbiq etiladi.

Mazkur qurilish reglamentda nazarda tutilgan “fon monitoringi” qurilish boshlanishidan oldin va qurilish davomida shovqin va havodagi chang (PM) ko‘rsatkichlarini uzluksiz kuzatish, shuningdek kuzatuv natijalarini raqamli tarzda saqlash va taqdim etishni qamrab oladi.

1-bob. Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarga havolalar

1. Mazkur qurilish reglamentida quyidagi texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarga havolalar keltirilgan:

O‘z DSt ISO 14001:2019 (ISO 14001:2015, IDT) – Ekologik menejment tizimi. Foydalanish bo‘yicha ko‘rsatmalar va talablar;

O‘z MSt ISO 1996-1:2025 (ISO 1996-1:2016, IDT) – Akustika. Joydagi shovqinni tavsiflash, o‘lchash va baholash. 1-qism: Asosiy qiymatlar va baholashning tartib-qoidalari;

O‘z MSt ISO 1996-2:2025 (ISO 1996-2:2017, IDT) – Akustika. Atrof-muhit shovqinini tavsiflash, o‘lchash va baholash. 2-qism: Shovqin bosimi darajalarini aniqlash;

O‘z MSt ISO 8178-1:2025 (ISO 8178-1:2020, IDT) – Porshenli ichki yonuv dvigatellari Chiqindi gazlar tashlamalarini o‘lchash 1-qism: Gazsimon va qattiq zarrachali tashlamalarni o‘lchash uchun o‘lchov tizimlari;

O‘z MSt ISO 8178-2:2025 (ISO 8178-2:2021, IDT) – Ichki yonuv porshenli dvigatellar Chiqindi gazlar tashlamalarini o‘lchash 2-qism: Dala sharoitida chiqindi gazlarining gazsimon va ishlatilgan gazlarning qattiq zarrachalarini o‘lchash;

O‘z MSt ISO 8178-3:2024 (ISO 8178-3:2019, IDT) – Ichki yonuv porshenli dvigatellar Chiqindi gazlar tashlamasini o‘lchash 3-qism: Siqilishdan yonish dvigatellarining chiqindi gazlari tutunligini o‘lchash uchun filtrlovchi turdagi tutun o‘lchagichdan foydalanib sinovdan o‘tkazish tartiblari;

O‘z MSt ISO 8178-4:2025 (ISO 8178-4:2017, IDT) – Porshenli ichki yonuv dvigatellari Chiqindi gazlar tashlamalarini o‘lchash 4-qism: Dvigatelni turli sohalarda qo‘llash uchun barqaror va o‘tish rejimlaridagi sinov sikllari;

O‘zMSt ISO 10849:2024 (ISO 10849:2022, IDT) – Qo‘zg‘almas manbalardan chiqayotgan gazlar. Tutun gazidagi azot oksidlarining massa konsentratsiyasini aniqlash. Avtomatlashtirilgan o‘lchov tizimlarining ishlash xususiyatlari;

O‘z DSt ISO 12039:2021 (ISO 12039:2019, IDT) – Statsionar manba emissiyalari. Tutun gazidagi karbon monoksit, karbonat angidrid va kislorodning massa kontsentratsiyasini aniqlash. Avtomatlashtirilgan o‘lchash tizimlarining ishlash xususiyatlari;

EN 14907:2005 – Ambient air quality - Standard gravimetric measurement method for the determination of the PM2,5 mass fraction of suspended particulate matter;

ISO 21930:2017 – Sustainability in buildings and civil engineering works - Core rules for environmental product declarations of construction products and services.

2-bob. Atamalar va ta’riflar

2. Mazkur qurilish reglamentda quyidagi atamalar va ularning ta’riflari qo‘llanilgan:

fon monitoringi – qurilish boshlanishidan oldin belgilangan davrda va qurilish jarayonida shovqin va havodagi chang (PM2.5, PM10, TSP) ko‘rsatkichlarini avtomatlashtirilgan tarzda o‘lchash, qayd etish, saqlash va tahlil qilish jarayoni;

fon monitoring stansiyasi – shovqin, chang va (ixtiyoriy) meteoparametrlar (harorat, namlik, shamol tezligi va yo‘nalishi, atmosfera bosimi)ni o‘lchaydigan datchiklar bilan jihozlangan hamda ma’lumotlarni real vaqtda uzatuvchi uskuna majmuasi;

onlayn-kamera – qurilish maydonining belgilangan nuqtalarida 24/7 rejimida video kuzatuvni ta’minlaydigan, vaqt belgisi va (mumkin bo‘lgan hollarda) geometama’lumotlar bilan integratsiyalangan raqamli kamera;

vakolatli organ – mazkur reglament ijrosi yuzasidan qonunchilikka muvofiq nazorat vakolatiga ega bo‘lgan davlat organlari, shu jumladan Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi (uning hududiy organlari) hamda Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasi;

mas’ul shaxs – buyurtmachi yoki pudratchi tomonidan tayinlangan, ekologik talablar ijrosi, monitoring uskunalarini o‘rnatish va ma’lumotlarni taqdim etish uchun javobgar xodim;

tungi vaqt – 22:00 dan 06:00 gacha (mahalliy vaqt) bo‘lgan davr;

markaziy server (platforma) – monitoring ma’lumotlarini qabul qilish, saqlash, jurnallash va taqdim etishni ta’minlovchi axborot tizimi;

NTP (Network Time Protocol) – uskunalarda vaqt belgisini sinxronlashtirish protokoli;

qurilishdagi ekologik faoliyat – qurilishning atrof-muhitga salbiy ta’sirini oldini olish, kamaytirish va bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidir;

atrof-muhit monitoringi —qurilishning ta’sirini baholash maqsadida havo, tuproq, suv va tabiatning boshqa tarkibiy qismlari holatini muntazam kuzatib borish;

ekologik samaradorlikni baholash — ESB (environmental performance evaluation; EPE): ko‘rsatkichlarni tanlash, ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish, ekologik samaradorlik mezonlari bo‘yicha axborotni baholash, hisobot berish va axborot almashish, ushbu jarayonni davriy ravishda qayta ko‘rib chiqish hamda takomillashtirish orqali tashkilotning ekologik samaradorligiga oid boshqaruv qarorlarini qabul qilishga yordam beradigan jarayon;

ifloslanishni nazorat qilish vositalari – atrof-muhitga chiqariladigan moddalarni o‘lchash, ularning oldini olish va nazorat qilishga mo‘ljallangan texnik qurilmalar.

III bob. Ekologik talablarni tashkil etishning umumiy qoidalari

3. Ekologik faoliyat quyidagilarni ta’minlaydi:

atmosfera havosining ifloslanishini oldini olish;

tuproq va suv resurslarining ifloslanishiga yo‘l qo‘ymaslik;

tabiiy resurslardan oqilona foydalanish;

chiqindilar hosil bo‘lishini kamaytirish;

issiqxona gazlari chiqarilishini kamaytirish;

sanitariya-muhofaza zonalariga rioya etish.

4. Buyurtmachi va pudratchi tashkilotlar qurilish ishlari boshlanishidan oldin “Ekologik boshqaruv rejasi”ni (bundan buyo matnda – EBR deb yuritiladi) ishlab chiqadilar va tasdiqlaydilar.

Ishlab chiqilgan EBRda quyidagilar nazarda tutiladi:

chang va shovqinni kamaytirish choralari;

chiqindilarni boshqarish;

yorqin nurlanish/vibratsiya manbalarini cheklash;

yoqilg‘i va moylar bilan ishlash qoidalari;

yomg‘ir/oqova suvlarni boshqarish hamda favqulodda holatlarda tezkor choralar.

5. EBRda monitoring stansiyalari va onlayn-kameralarni joylashtirish sxemasi, texnik talablar, ma’lumotlarni saqlash muddati va taqdim etish tartibi, shuningdek chegaraviy qiymatlar (yoki ishchi ostona ko‘rsatkichlari) belgilanishi maqsadga muvofiq

6. Qurilish maydoniga kirish-chiqish nuqtalarida charx yuvish (yoki ifloslikni cheklash) vositalari, changlanish yuqori bo‘lgan hududlarda suv sepish/po‘stloqlash, inert materiallarni yopish va to‘g‘ri saqlash, transport tezligini cheklash kabi choralar tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

7. Qurilish maydonchasida changni bostirish uchun quyidagi choralar qo‘llanilishi tavsiya etiladi:

namlantirish;

sochma materiallarning ustini yopish;

texnika g‘ildiraklarini yuvish.

8. Yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan eng yuqori miqdor (YQM) sanitariya me’yorlaridan oshmasligi maqsadga muvofiq.

9. Foydalaniladigan qurilish texnikasi chiqindilar bo‘yicha ekologik talablarga javob berishi hamda quyidagi o‘lchash va aniqlash ishlarini o‘z ichiga olishi maqsadga muvofiq:

O‘z MSt ISO 8178-1 standartiga muvofiq sinov stendlarida gazlar va zarrachalar chiqindilarini o‘lchash;

O‘z MSt ISO 8178-2 standartiga muvofiq foydalanish sharoitlarida gazlar va zarrachalar chiqindilarini o‘lchash;

O‘z MSt ISO 8178-3 standarti bo‘yicha statsionar rejimda tutun gazlarining tutunliligini aniqlash va o‘lchash usullari;

O‘z MSt ISO 8178-4 standarti bo‘yicha dvigatellarning tutun gazlari bilan chiqadigan gazsimon zararli moddalar va zarrachalarni o‘lchash hamda baholash.

10. Qurilish maydonchasida chiqindilarni boshqarish rejasi ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq. Bu reja quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

tasniflash;

vaqtincha saqlash;

qayta ishlash;

utilizatsiya qilish.

11. Qurilish ishlarini bajarish jarayonida quyidagilarni alohida yig‘ish ko‘zda tutilishi maqsadga muvofiq:

inert chiqindilar;

metall;

yog‘och;

plastik;

xavfli chiqindilar.

12. Inert chiqindilarni qayta ishlash ulushini kamida 30 foiz belgilash maqsadga muvofiq.

13. Qurilishdagi ekologik faoliyatning ekologik samaradorligini baholash (ESB) O‘z DSt ISO 14031 talablariga mos keladi. Ekologik samaradorlikni baholash jarayonida olingan ma’lumotlar quyidagilarni aniqlash imkonini beradi:

ekologik jihatlarni aniqlash va ulardan qaysi biri eng muhim ekanini belgilash;

ekologik samaradorlikni oshirish bo‘yicha maqsad va vazifalarni belgilash hamda shu maqsad va vazifalarga muvofiq samaradorlikni baholash;

o‘zining ekologik jihatlarini yanada samaraliroq boshqarish imkoniyatlarini aniqlash;

o‘zining ekologik faoliyati samaradorligiga oid tendensiyalarni aniqlash;

samaradorlik va natijadorlikni tahlil qilish hamda oshirish;

strategik imkoniyatlarni aniqlash;

tashkilot o‘zining ekologik jihatlari yuzasidan bajarish majburiyatini olgan qonunchilik va boshqa talablarga rioya qilinishi yoki qilinmasligi xavfini baholash;

tashkilot ichida va undan tashqarida ekologik samaradorlik bo‘yicha hisobot berish va axborot almashish.

14. Ekologik menejment tizimi O‘z DSt ISO 14001 talablariga muvofiq, hayotiy sikl konsepsiyasini hisobga olgan holda, qurilish faoliyati, mahsulotlar va xizmatlarning ekologik jihatlariga nisbatan qo‘llanadi.

IV bob. Qurilish boshlanishidan oldingi talablar va fon lozimonitoringini joriy etish

15. Qurilish ishlari boshlanishidan oldin (yer qazish, demontaj, og‘ir texnika kiritilishi, materiallar tashish ishlari) pudratchi tashkilot tomonidan fon-monitoring stansiyalari va onlayn-kameralar o‘rnatilishi hamda ishga tushirilishi maqsadga muvofiq

16. Qurilishning xususiyatiga qarab, FSEMning quyidagi turlari ko‘zda tutiladi:

O‘z DSt EN va EN 14907 uslublariga muvofiq nazorat qilinadigan ko‘rsatkichlarga ega atmosfera havosi monitoringi stansiyalari

PM10 muallaq zarrachalari;

PM2.5 muallaq zarrachalari;

umumiy changlanish;

O‘z MSt ISO 12039 va O‘z MSt ISO 10849:2024 bo‘yicha aniqlanadigan gazsimon komponentlar: azot oksidlari (NO_2), oltingugurt dioksidi (SO_2) va is gazi (CO).

O‘z MSt ISO 1996-1, O‘z MSt ISO 1996-2, O‘zDSt ISO 3746 va O‘zDSt ISO 3744 ni aniqlash uslublariga muvofiq, nazorat qilinadigan ko‘rsatkichlarga ega shovqin monitoringi stansiyalari:

ekvivalent tovush darajasi, LAeq;

maksimal daraja, Lmax;

tungi shovqin darajasi.

Nazorat qilinadigan ko‘rsatkichlarga ega vibratsiya monitoringi stansiyalari:

zarrachalarning eng yuqori tebranish tezligi;

tebranishlar chastotasi.

Nazorat qilinadigan ko‘rsatkichlarga ega yerusti va yerosti suvlari monitoringi stansiyalari (zaruratga ko‘ra):

loyqalik;

pH;

neft mahsulotlari;

og‘ir metallar.

17. Fon monitoring stansiyalari quyidagi hollarda majburiy tartibda o‘rnatiladi**:**

turarjoy qurilishiga 300 m dan kam masofada joylashgan sanoat obyektlari qurilishida;

ekologik ekspertizada belgilangan tegishli talablar mavjud bo‘lganda;

ishlar tungi vaqtda bajarilganda;

davlat nazorati organlarining talabiga ko‘ra.

Shuningdek, stansiyalar soni loyiha hujjatlari bilan belgilanishi, biroq quyidagidan kam bo‘lmasligi maqsadga muvofiq:

qurilish maydoni chegarasining uzunligi 200 m gacha bo‘lganda – bitta stansiya;

chegara uzunligi 200 m dan ortiq bo‘lganda – ikkita stansiya;

qo‘shimcha ravishda – bitta qo‘shimcha stansiya: aholi eng zich yashaydigan tura-joy hududi tomonidan, shuningdek ta’lim, tibbiyot va boshqa ijtimoiy infratuzilma obyektlari yaqinida.

18. Fon monitoringining dastlabki (bazaviy) davri kamida 7 kalendar kunni tashkil etadi va tunu kun (24/7 rejimda) olib boriladi.

Mazkur davrda fon (tabiiy) shovqin va chang ko‘rsatkichlari qayd etiladi va EBRda belgilangan ishchi ostona qiymatlarini aniqlashga xizmat qiladi.

19. Uskunalar o‘rnatilganligi, ularning ishga yaroqliligi va ma’lumot uzatish barqarorligi obyektning qurilish ishlariga ruxsat berishdan oldin tekshirilishi va elektron tarzda tasdiqlanishi maqsadga muvofiq.

20. Fon monitoringini tashkil etmasdan turib qurilish ishlarini boshlashga yo‘l qo‘yilmaydi, bundan avariyaviy-qutqaruv ishlari kabi kechiktirib bo‘lmaydigan holatlar mustasno.

V bob. Monitoring stansiyalari va onlayn-kameralarni joylashtirish hamda texnik talablar

21. Monitoring nuqtalari obyektning hajmi, hudud maydoni, shamol rozasi, chiqish/kirish yo‘nalishlari hamda eng yaqin aholi yashash va ijtimoiy obyektlarga nisbatan joylashuvini hisobga olgan holda tanlanishi maqsadga muvofiq.

22. Aholi yashash punktlariga yoki ijtimoiy obyektlarga yaqin chegarada kamida 1 ta (ustuvor) monitoring nuqtasi (PM + shovqin) va 1 ta onlayn-kamera joylashtirilishi shart.

23. Sanoat obyektlari va maydoni 5 (ha) dan ortiq qurilish maydonlari uchun monitoring stansiyalari soni kamida 2 ta bo‘lishi, qo‘shimcha ravishda har 5 (ha) uchun obyektning yuklama va xavf darajasidan kelib chiqib 1 tadan qo‘shib belgilanishi tavsiya etiladi.

24. Fon monitoring stansiyalari quyidagilarga ega:

iqlim ta’siridan himoyalangan korpus;

barqaror elektr ta’minoti (asosiy/zaxira);

mobil aloqa yoki kabelli internet orqali ma’lumot uzatish kanali;

kalibrovka/texnik xizmat ko‘rsatish uchun foydalanuvchiga qulay kirish imkoniyati.

25. Onlayn-kameralar changlanish manbalari (yer ishlari, inert materiallar saqlanadigan joy, yuklash-tushirish maydoni) va perimetrning ustuvor qismi (aholi tomon)ni qamrab oladigan tarzda o‘rnatiladi. Bunda kameralar 1080p dan past bo‘lmagan sifatda uzluksiz yozuvni ta’minlashga yo‘l qo‘yiladi.

26. Barcha uskunalarda vaqt belgisi sinxronizatsiyasi (NTP), ma’lumotlarni buzib ko‘rsatishdan himoya (jurnallar) hamda ma’lumotlarni kamida 90 kalendar kun saqlash (arxiv) rejimi ta’minlash tavsiya etiladi.

VI-bob. Ma’lumotlarni yig‘ish, tekshirish, saqlash va taqdim etish

27. Monitoring stansiyalaridan ma’lumotlar kamida har 1-5 daqiqada yangilangan holda markaziy server (platforma)ga uzatiladi.

Ma’lumotlarda kamida quyidagi maydonlar bo‘ladi: sana-vaqt, nuqta identifikatori, PM2.5, PM10 (va/yoki TSP), shovqin (Leq) hamda (mavjud bo‘lsa) meteoparametrlar.

28. O‘lchov vositalari qonunchilikda belgilangan tartibda (yoki ishlab chiqaruvchi talablari bo‘yicha) kalibrovka qilinishi va texnik xizmat ko‘rsatish jurnali yuritilishi maqsadga muvofiq.

29. Ma’lumotlar sifatini nazorat qilish (QA/QC) maqsadida quyidagi qoidalar belgilanadi:

sensor holati;

uzilishlar;

nol qiymatlar;

anomal sakrashlar va qayta ishlash.

30. Asossiz qo‘lda tahrirlashga yo‘l qo‘yilmaydi hamda har qanday tuzatish izoh va jurnal bilan elektron tarzda qayd etiladi.

31. Vakolatli organning so‘roviga ko‘ra monitoring ma’lumotlari va kamera yozuvlari belgilangan muddatlarda elektron tarzda taqdim etiladi. Aholi uchun axborot ochiqligi talab etilgan hollarda, jamoatchilikka qisqartirilgan dashbord (ko‘rsatkichlar) taqdim etilishi mumkin. Jamoatchilikka taqdim etiladigan axborot shaxsni identifikatsiya qilish imkonini bermasligi, shuningdek qonunchilik bilan muhofaza qilinadigan ma’lumotlarni oshkor etmaslik. Kirish huquqlari roliga ko‘ra chegaralanadi.

VII bob. Chegaraviy ko‘rsatkichlar va reagirlash choralari

32. EBRda ishchi chegaraviy qiymatlar (ogohlantiruvchi) mahalliy sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari hamda fon ko‘rsatkichlaridan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Ogohlantirish qiymatlari belgilanganda “fon + qo‘shimcha yuklama” tamoyili qo‘llaniladi.

33. Agar PM yoki shovqin ko‘rsatkichlari belgilangan ogohlantirish qiymatidan oshsa, pudratchi tashkilot 30 daqiqa ichida chang/shovqinni kamaytirish choralarini ko‘radi (suv sepish, texnikani cheklash, ish rejimini o‘zgartirish, materiallarni yopish va h.k.).

34. Ko‘rsatkichlarning oshib ketish holatlari kun davomida 3-martadan ortiq takrorlansa yoki sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlarida belgilangan limitlardan yuqori bo‘lsa, mas’ul shaxs vakolatli organni xabardor qiladi va xavfni bartaraf etgunga qadar yuqori changlanish yoki shovqin manbai bo‘lgan ish turlarini vaqtincha to‘xtatadi.

35. Reagirlash choralari, ko‘rilgan tadbirlar va natijalar elektron jurnalda qayd etiladi. Jurnalda sana-vaqt, sabab, chora, mas’ul va tasdiqlovchi materiallar (foto/video) ko‘rsatiladi.

VIII bob. Yakunlovchi qoidalar

36. Mazkur reglament talablariga rioya etish buyurtmachi va pudratchi tashkilotlar uchun majburiy hisoblanadi. Ekologik monitoring uskunalarining ishlashini sun’iy ravishda to‘xtatish,

ma’lumotlarni buzib ko‘rsatish (soxtalashtirish) yoki o‘zboshimchalik bilan kameralarni yopish/burish holatlari qonunchilikka muvofiq javobgarlikka sabab bo‘ladi.

37. Vakolatli organlar mazkur reglament ijrosi ustidan monitoring va nazoratni belgilangan tartibda amalga oshiradi, zaruratga ko‘ra, nazorat tadbirlari natijalarini elektron shaklda rasmiylashtiradi.

38. Mazkur reglament talablariga rioya etilishi qurilish ishlariga ruxsat berish va obyektni foydalanishga qabul qilishda hisobga olinadi. Buyurtmachi (yoki uning topshirig‘iga ko‘ra pudratchi) quyidagilar bajarilganini elektron tarzda tasdiqlaydi:

EBR tasdiqlangan;

mas’ul shaxs tayinlangan;

monitoring uskunalari o‘rnatilib ishga tushirilgan va bazaviy monitoring natijalari shakllantirilgan;

platformada ma’lumotlar uzatilishi ta’minlangan va elektron jurnal yuritilmoqda.

Ma’lumotlar uzatilishi to‘xtashi, uskunalar ishdan chiqishi yoki ishonchlilikka shubha tug‘ilganda, mas’ul shaxs EBRga muvofiq tezkor chora ko‘radi va buyurtmachi hamda vakolatli organ(lar)ni xabardor qiladi.

39. Mazkur reglament talablari qurilish ishlari tugagunga qadar amal qiladi. Obyekt foydalanishga topshirilganda, monitoring uskunalari va arxiv ma’lumotlari bo‘yicha yakuniy hisobot (EBRga muvofiq) taqdim etiladi.

QR_._-26 “Qurilishda ekologik
faoliyat talablari”
qurilish reglamentiga
1-ILOVA

Fon monitoringini tashkil etish metodikasi

1. Metodikaning maqsadi – obyekt uchun monitoring nuqtalarini ilmiy yondashuv asosida tanlash, fon ko‘rsatkichlarni aniqlash va qurilish davomida ta’sirni baholash uchun yagona tartibni belgilash.

2. Nuqtalarni tanlash quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

obyektning chegaralari va atrof hududni tahlil qilish;

aholi yashash/ijtimoiy obyektlarni aniqlash;

shamol rozasi va relefni hisobga olish;

transport kirish-chiqish yo‘nalishlarini baholash;

ustuvor nuqta(lar)ni belgilash.

3. Tavsiya etiladigan minimal nuqtalar quyidagicha bo‘lishi tavsiya etiladi:

a) №1 nuqta (ustuvor): aholi yashash punkti yoki ijtimoiy soha obyektlariga eng yaqin perimetr chegarasida (PM + shovqin + kamera);

b) №2 nuqta: shamolning ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha pastga tomon (downwind) tushuvchi perimetr qismida (PM + shovqin);

v) №3 nuqta: ichki nazorat nuqtasi – asosiy chang manbalariga yaqin (PM) yoki darvoza/yuklash nuqtasi (kamera).

4. Maydoni 7 (ha) bo‘lgan, aholi yashash punktiga yaqin sanoat obyekti uchun 3 tadan kam bo‘lmagan monitoring nuqtasi (2 ta stansiya va kamida 1 ta kamera ustuvor chegarada) joriy etiladi.

5. Bazaviy (fon) monitoring 7 kun davomida olib boriladi hamda kuni-tun (24/7 rejimda) o‘lchovlar qayd etiladi.

6. Qurilish jarayonida monitoring ma’lumotlari avtomatik tarzda saqlanadi, haftalik hisobotlarda tendensiyalar, oshish holatlari va ko‘rilgan choralar aks ettiriladi.

QR_._-26 “Qurilishda ekologik
faoliyat talablari”

qurilish reglamentiga
2-ILOVA

Ekologik boshqaruv rejasining (EBR) tuzilmasi

Umumiy qoidalar

EBR murakkablik darajasi I–III toifaga mansub obyektlar uchun ishlab chiqiladi.

EBR qurilish-montaj ishlari boshlanishidan oldin tashkilot tomonidan tasdiqlanadi.

Obyekt haqidagi umumiy ma’lumotlar:

obyektning nomi;

manzili;

murakkablik darajasi;

amalga oshirish muddatlari;

qurilish ishtirokchilari;

mas’ul ekologning aloqa ma’lumotlari.

Ekologik jihatlarni aniqlash

Ta’sir turlari aniqlanadi:

atmosferaga chiqariladigan moddalar;

suv obyektlariga oqovalar;

chiqindilarning hosil bo‘lishi;

shovqin va tebranish;

tuproqqa ta’sir;

resurslar iste’moli.

Jihtonlarning ahamiyatliligi xavf shkalasi (ehtimollik × oqibatlar og‘irligi × ko‘lam) bo‘yicha baholanadi.

Ekologik jihatlarni aniqlash

Quyidagi ta’sir turlari aniqlanadi:

atmosferaga chiqariladigan moddalar;

suv obyektlariga oqiziladigan moddalar;

chiqindilarning hosil bo‘lishi;

shovqin va tebranish;

tuproqqa ta’sir ko‘rsatish;

resurslarni iste’mol qilish.

Jihatlarning ahamiyati tavakkalchilik shkalasi (ehtimollik × og‘irlik × ko‘lam) bo‘yicha baholanadi.

Ta’sirni kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar

Har bir muhim jihat uchun quyidagilar belgilanadi:

oldini olish chora-tadbirlari;

nazoratning texnik vositalari;

mas’ul shaxslar;

samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI).

Monitoring dasturi

Quyidagilar ko‘rsatiladi:

nazorat parametrlari;

o‘lchov metodikalari;

davriyligi;

yo‘l qo‘yiladigan darajalar;

ma’lumotlarni saqlash tartibi.

Favqulodda vaziyatlarda harakat qilish rejasi

yuz berishi mumkin bo‘lgan avariya ssenariylari;

harakatlar tartibi;

xabardor qilish tizimi;

vakolatli organlar bilan o‘zaro hamkorlik.

Hisobot berish

davriyligi;

taqdim etish shakli;

ma’lumotlarni arxivlash (kamida 5 yil).

QR_._-26 “Qurilishda ekologik
faoliyat talablari”
qurilish reglamentiga
3-ILOVA

KPI shakli (namuna)

№	Ko‘rsatkich	Hisoblash usuli	Maqsad (me’yor)	Davriylik/mas’ul
1	Monitoring qamrovi	O‘rnatilgan nuqtalar / talab etilgan nuqtalar, foiz	100 foiz	Oylik / Pudratchi
2	Stansiya ishlash barqarorligi	Uptime, foiz (ishlagan vaqt / umumiy vaqt)	≥ 95 foiz	Oylik / Pudratchi
3	Ma’lumot uzatish uzilishlari	Uzilishlar soni (soatdan ortiq)	≤ 2 ta/oy	Oylik / Pudratchi
4	Ogohlantirish reaksiya vaqti	Oshish → chora ko‘rilgunga qadar vaqt	≤ 30 daqiqa	Har holat / Mas’ul
5	Takroriy oshishlar	Kunlik 3-martadan ortiq oshishlar soni	0–minimallashtirish	Oylik / Buyurtmachi
6	Kalibrovka intizomi	Kalibrovka muddatda bajarilishi, foiz	100 foiz	Choraklik / Pudratchi
7	Jamoatchilik axboroti	Dashbord yangilanish chastotasi	Kamida kunlik	Kunlik / Platforma operatori

QR_._-26 “Qurilishda ekologik
faoliyat talablari”
qurilish reglamentiga
4-ILOVA

GWP (uglerod izi) ni hisoblash uslubiyati

Hisob-kitob O‘z DSt ISO 14040 va O‘z DSt ISO 14044 standartlariga muvofiq hayotiy sikl prinsiplari asosida bajariladi.

Hisoblash formulasi:

$$GWP=\sum(M_i \times EF_i)$$

bu yerda:

M_i — material massasi, t;

EF_i — emissiya koeffitsiyenti, t CO_2-ekv/t.

Quyidagi bosqichlar hisobga olinadi:

A1–A3 — ishlab chiqarish;

A4 — tashish;

A5 — qurilish;

B — foydalanish;

C — demontaj;

D — qayta ishlashdan olinadigan foyda.

Koeffitsiyentlar manbalari:

ISO 21930 bo‘yicha EPD;

LCA xalqaro ma’lumotlar bazalari;

emissiyalarning milliy ma’lumotnomalari.

Natija umumiy maydonning har bir kvadrat metri uchun kg CO_2-ekvivalentda (kg CO_2-ekv/m^2) ifodalanadi.

Referent emissiya qiymatlari (GWP)

Materialar	kg CO_2-ekv/t
Portlandsement	800–950
Og‘ir beton	250–400

Materialar	kg CO_2-ekv/t
Armatura po‘lati	1700–2000
Keramik g‘isht	200–350
Gazobeton	200–350
Shisha	900–1200

Izoh: qiymatlar taxminiy, EPD bo‘yicha aniqlashtirilmoqda.